

HISTORY AND IMPORTANT FUNCTIONS OF PEDAGOGICAL SCIENCE

O‘rinboyeva Nodira

A trainee teacher of the Department of pedagogy and psychology of the
University of Business and Science

Annotation

This article extensively covers the main tasks and history of the emergence of the discipline of Pedagogy. The purpose of the article is to reveal the theoretical and methodological foundations of the discipline of pedagogy, to form skills and qualifications for the successful organization of pedagogical activity.

Keywords

Pedagogy, process, methodology, laws, teacher, method.

PEDAGIGIKA FANI TARIXI VA MUHIM VAZIFALARI

O‘rinboyeva Nodirabegim

“University of Business and Science” universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Pedagogika fanining asosiy vazifalari va paydo bo‘lish tarixi keng yoritilgan. Maqolaning maqsadi — pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar

Pedagogika, jarayon, metodologiya, qonuniyatlar, pedagog, metod.

ИСТОРИЯ И ВАЖНЫЕ ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ

Ўринбаева Нодира

преподаватель-стажер кафедры педагогики и психологии
университета” University of business and Science”

Аннотация

В статье подробно рассматриваются основные задачи и история возникновения педагогики. Цель статьи — раскрыть теоретико-методологические основы педагогики, сформировать умения и навыки для успешной организации педагогической деятельности.



Ключевые слова

педагогика, процесс, методология, законы, учитель, метод.

KIRISH

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji iming psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to'g'risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu o'rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o'zgartirish metodlari to'g'risidagi ta'limot» ekanligini e'tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo'yadilar.

Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'ot xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Tarbiya



– muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulqatvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni. Taʼlim – oʻquvchilarni nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini oʻstirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan jarayon. Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, maʼlum obrazlar koʻrinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy maʼlumotlar majmui. Koʻnikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati. Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Kompetensiya – egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati. Maʼlumot – taʼlim-tarbiya natijasida oʻzlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan koʻnikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Shakllantirish – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va meʼyorlar asosida tarkib toptirish jarayoni. Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻladigan miqdor va sifat oʻzgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NATIJALAR

Pedagoglik kasbining paydo boʻlishiga eʼtibor qaratilsa, shu narsa koʻrinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan boʻlsa, keyinchalik taʼlim va tarbiya bir-biriga qarama-qarshi qoʻyila boshladi: oʻqituvchi oʻqitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda obʼyektiv nuqtai nazardan taʼlim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz taʼlimda vosita bor, lekin maqsad yoʻq, taʼlimsiz esa maqsad bor, vosita yetishmaydi. Nemis pedagogi A.Disterveg, taʼlimni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: “Taʼlim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham boʻladi, yoki aksincha”. SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Pedagogik jarayonning yagonaligi gʻoyasi K.D.Ushinskiy gʻoyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining maʼmuriy, oʻquv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K.D.Ushinskiyning taraqqiyparvar gʻoyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.BElinskiy, V.PBaxterov va boshqalarning ishlarida oʻz aksini topgan. Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shugʻullandi. U pedagogik jarayonlarning koʻptomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: “Taʼlim, oʻqitish, oʻrgatish, tarbiya, pand-nasihad, oʻgit va boshqa bir qator soʻzlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir”.

MUHOKAMALAR

Oʻqitish jarayoni pedagogning oʻrgatuvchilik faoliyatini va oʻquvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini oʻz ichiga oladi. Shu oʻrinda bu jarayonlarning tahliliga eʼtibor qarataylik. Taʼlimda oʻqituvchining boshqaruvchilik roli oʻz kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qoʻlga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qoʻyadi. Bularning barchasi oʻqituvchining taʼlimiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida oʻz aksini topmogʻi lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, taʼlim jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilariga qoʻlga kiritilgan bilimlarni oʻrgatadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:



- ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarn tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g'oyalariga asoslanish;

- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

- ta'lim (xususan, kasbiy ta'limi) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

- ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, pedagogik jarayon ilmiy-g'oyaviy bo'shliq, noaniqlikka asoslana olmaydi. Pedagogikaning ilmiy-g'oyaviy asoslari qanchalik puxta, hayotiy bo'lsa, ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligi shunchalik yuqori, ishonchli bo'ladi. Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi, hatto olimlikka da'vogarlik qilishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lishi shart. Ana shu fazilatlarga ega bo'lgan odamni tarbiya ko'rgan odam deyiladi.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim



mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистан Республикасини ялада ривожлантириш буйнча Х^ракатлар стратегмси тугрисидаги /Расмий нашр/ Ўзбеккстон Республикаси Ддия вазирлиги - Тошкент *1Адолат""2017-йил, 25-бет
2. KadrSar tayyorlash mffliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 3. <https://jspi.uz/wp-content/uploads/2021/04/Umumiy-pedagogika-MavlonovaR.A..pdf>
3. 1.Нодировна, Кхушназарова Мамура. "ТХЕОРЕТИСАЛ АНД МЕТХОДОЛОГИСАЛ
4. БАСИС ОФ ТРАИНИНГ ОФ МАНАГЕМЕНТ ПЕРСОННЕЛ ИН ТХЕ ПРОСЕСС ОФ ХИГХЕР ПЕДАГОГИСАЛ ЕДУСАТИОН." ИНТЕРНАТИОНАЛ ЖОУРНАЛ ОФ СОИАЛ ССИЕНСЕ & ИНТЕРДИССИПЛИНАРЙ РЕСЕАРЧ ИССН: 2277-3630 Импаст фастор: 7.429 11.04 (2022): 171-177.
5. Акбаровна, Абдуллажоновна Шахноза. "ИНСЛУСИВЕ ЕДУСАТИОН АНД ИТСЕССЕНСЕ." ИНТЕРНАТИОНАЛ ЖОУРНАЛ ОФ СОИАЛ ССИЕНСЕ & ИНТЕРДИССИПЛИНАРЙ РЕСЕАРЧ ИССН: 2277-3630 Импаст фастор: 7.429 11.01 (2022): 248-254.
6. Pedagogicheskie faktor formirovaniya chuvstva Rodin na osnove nasionalnx i obshechelovecheskix sennostey u uchashixsya nachalnoy shkol. Sredneevropeyskiy nauchny vestnik, 17, 284-286. хттпс://doi.

